XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 - yil 6 - yanvar VI-42-1-8-109-K/22 Angor tuman hokimligi

Angor tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, 2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30-dekabrdagi 22-04-10/6399-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq, Angor tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun daromadlari 68018,5 mlrd. so‘m, xarajatlari 130250,2 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 62231,7 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2022 yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun tuman byudjeti zahira jamg‘armasi hajmlari 1,2 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2022 yil uchun zahira jamg‘armasi tegishli byudjet tasdiqlangan umumiy xarajatining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2022 yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy byudjetni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan qat’iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisidagi ulushiga muvofiq taqsimlansin.

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar

b) tuman mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘i (O‘zbekitson Respubilkasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidenlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari).

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar.

v) tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

(har bir soliq turi bo‘yicha ajratmalar normativi ko‘rsatiladi).

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Mamayusupov, tuman Moliya bosh bo‘limi mudiri vaqtincha bajaruvchi S.Kuchkarov, Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (O.Muratov) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish

vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘I (O.Muratov), Kadastr bo‘limi boshlig‘i (Q.Ishmamatov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (O.Muratov), tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda tuman mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Angor tuman bo‘limi (B.Mamataliyev) tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Tyman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Rajabova), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organiga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov), tuman moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning
1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tuman mahalliy byudjetiga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (Sh.Eshaliyev) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov), tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

19. Tuman ichki ishlar bo‘limi (D.Qurbonov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (I.Jo‘rayev), tuman Davlat xizmatlari markazi (I.Chorshanbiyev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

20. Tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda tuman Kengashi qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Tuman Kengashi qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

21. Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman Yoshlar ishlari agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligi rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

22. Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputatlarining boshqaruv organlari xodimlariga mehnatga haq to‘lashni tartibga solish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin hamda tuman mahalliy budjetining 2022 yil davomida shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan:

Tuman hokimligining barcha xodimlarining (tuman hokimi va o‘rinbosarlari, mahallabay markazi xodimlari va mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari bundan mustasno) ish haqiga har oyda bir oylik ish haqi miqdorida;

Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati xodimlarining ish haqiga har oyda bir oylik ish haqi miqdorida;

Tuman moliya bo‘limi xodimlarining har oyda bir oylik ish haqining 50 foizi miqdorida qo‘shimcha haq to‘lash belgilansin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Mamayusupov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli bo‘limlar boshliqlari:

Tuman mahalliy byudjeti daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Mazkur qaror “Angor yog‘dusi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Angor tuman hokimi v.v.b **Mamayusupov O. N.**

Халқ депутатлари Ангор туман
Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-42-1-8-109-K/22-сон қарорига
1-илова

Ангор туман маҳаллий бюджет даромадларининг
2022 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари

минг сўмда

Т/Р	Даромад турлари	Жами	ЖАМИ	68 018 511,0
1	Ягона солиқ тўловидан Давлат бюджетига ажратмалар	5 429 000,0		
2	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	1 607 000,0		
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	14 619 500,0		
4	Қўшилган қиймат солиғи	0,0		
5	Акциз солиғи, жами	29 422 611,0		
	шу жумладан:			
	- бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ	*7 544 000,0*		
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	1 040 000,0		
7	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	2 967 000,0		
8	Юридик шахслар ер солиғи	483 000,0		
9	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	8 238 000,0		
10	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ (норуда материаллари)	17 000,0		
11	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	977 000,0		
12	Давлат божи			
13	Жарималар			
14	Ижара тўлови	164 000,0		
15	Давлат ташкилотларининг соф фойдасидан даромад			
16	Давлат мулкини хусусийлаштиришдан тушган тушум	253 400,0		
17	Йиғимлар	2 801 000,0		
II.	**Республика бюджетидан ажратилган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар**	**62 231 697,0**		
	Даромадлар ҳаммаси	**130 250 208,0**		

Халқ депутатлари Ангор туман Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-42-1-8-109-К/22-сон қарорига
2-илова

2022 йил учун Ангор тумани бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган маблағ ажратмаларининг чекланган миқдорлари

минг сўмда

№	Кўрсаткичлар	миқдори
Харажатлар миқдори, Жами		**130 250 208,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**130 250 208,0**
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
	Туман ва шахар маҳаллий бюджетларига трансфертлар	
1.	**Халқ таълими бўлими**	**8 090 697,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	8 090 697,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
2.	**Мактабгача таълим бўлими**	**4 107 701,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 107 701,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
3.	**Махалла ва оилани қўллаб қувватлаш бўлими**	**459 580,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	459 580,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
4.	**Соғлиқни сақлаш муассасалари**	**52 024 072,0**

	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	52 024 072,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
5.	**Маданият бўлими**	**454 946,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	454 946,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
6.	**Жисмоний тарбия ва спорт бўлими**	**1 335 455,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 335 455,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
7.	**Қишлоқ хўжалиги бўлими**	**480 449,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	480 449,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
8.	**Ирригация бўлими**	**856 853,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	856 853,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
9.	**Ветеринария бўлими**	**1 057 993,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 057 993,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
10.	**Меҳнат бўлими**	**642 243,0**
	шу жумладан:	

	жорий харажатлар	642 243,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
11.	**Молия бўлими**	**854 120,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	854 120,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
12.	**Махаллабай ишлаш марказлари**	**3 190 056,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 190 056,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
13.	**Ободонлаштириш бошқармаси**	**7 414 053,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	7 414 053,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
14.	**Давлат ҳокимият органлари**	**2 341 024,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 341 024,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
15.	**Ижтимоий мослашув маркази**	**35 987,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	35 987,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
16.	**Ижтимоий нафақалар**	**34 126 338,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	34 126 338,0

	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
17.	**Фермер хужаликлари бухгалтерия маркази**	**140 105,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	140 105,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
18.	**Маҳалла сақлаш харажатлари**	**3 568 084,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 568 084,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
19.	**Халқ депутатлари кенгаши котибияти**	**194 926,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	194 926,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
20.	**Халқ қабулхонаси**	**51 192,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	51 192,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
21.	**Ахборот кутубхона маркази**	**420 512,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	420 512,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
22.	**Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун**	**973 235,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	973 235,0

	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
23.	**Фуқаролар ташаббуси жамғармаси**	**6 202 391,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	6 202 391,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
24.	**Захира жамғармаси**	**1 228 196,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 228 196,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

Халқ депутатлари Ангор туман Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-42-1-8-109-К/22-сон қарорига
3-илова

Умумдавлат солиқларидан туман маҳаллий бюджетига 2022 йил учун ажратмалар меъёри

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Шахар ва туманлар номи	Айланмадан солиқ	Якка тартибдаги тадбиркорлардан олинадиган қатъий белгиланган миқдордаги даромад солиғи (3 111 401)	Жисмоний шахсларнинг ер солиғи	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ (Электр станциялари томонидан тўланадиган сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқдан ташқари)	Бензин, дизель, сиқилган газ, суюлтирилган газ ёқилғисини якуний истеъмолчиларга сотишдан акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Норуда қурилиш материаллари учун ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Юридик шахслар ер солиғи	Йиғимлар	Давлат мулкини хусусийлаш-тиришдан (сотишдан) тушадиган тушумлар	Ижара тўловлари
1	Ангор тумани	100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100

Халқ депутатлари Ангор туман
Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-42-1-8-109-K/22-сон қарорига
4-илова

Ангор туман маҳаллий бюджетининг 2022 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

минг сўмда

Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
ЖАМИ	**68 018 511**	**130 250 208**
Ангор тумани	68 018 511	130 250 208

Халқ депутатлари Ангор туман
Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-42-1-8-109-K/22-сон қарорига
5-илова

Ангор туман маҳаллий бюджетининг 2021 йилги юқори бюджетдан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдори

минг сўмда

Шаҳар ва туманлар	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**
Ангор тумани	62 231 697,0

Халқ депутатлари Ангор туман
Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-42-1-8-109-К/22-сон қарорига
6-илова

Ангор туман маҳаллий бюджетида йўл қўйиладиган энг кам маблағлар миқдори

минг сўмда

Т/рҲудуд номи	Миқдор
1 Ангор тумани	**721 200,0**